



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-avgust

420-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son Farmoni ijrosi haqida”gi 381-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirish, fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish siyosatini davom ettirish hamda ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, shuningdek, pedagog va tibbiyot xodimlari mehnatini qo‘shimcha rag‘batlantirish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-avgustdagi 381-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-avgustdagi 381-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son Farmoni bilan:

2024-yil 1-sentabrdan boshlab pensiyalar va nafaqalar miqdori 15 foizga oshirilishi, Bunda:

pensiyaning hisoblash bazaviy miqdori - oyiga 428 000 so‘m;

yoshga doir eng kam pensiya miqdori - oyiga 834 000 so‘m;

nogironlik pensiyalarining eng kam miqdori - oyiga 920 000 so‘m etib;

fuqarolarga to‘lanadigan boshqa pensiyalar va nafaqalar miqdorlari ilovaga muvofiq belgilanganligi;

2024-yil 1-oktabrdan boshlab:

budjet tashkilotlarida ishlovchi tibbiyot xodimlari, shuningdek, maktabgacha, umumta‘lim, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari va tashkilotlari, “Muruvvat” internat uylari, bolalar va mehribonlik uylari, bolalar sanatoriyalarida ishlovchi pedagog xodimlarning ish haqi miqdori - 15 foizga oshirilishi;

budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori - 10 foizga oshirilishi;

mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori - oyiga 1 155 000 so‘m;

bazaviy hisoblash miqdori - 375 000 so‘m etib belgilanganligi;

budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqlari, pensiyalar va nafaqalar miqdori oshirilishi bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi;

ish beruvchilarga ish haqi miqdorini qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan holda to‘lashni ta‘minlab, ish haqi miqdorini mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga muvofiq oshirish tavsiya etilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev) Axborot xizmati (Sh.Kenjayevo) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son Farmonining maqsadi, vazifalari

va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari va Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i Z.Jurabayev belgilansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov